



## SHUKUR XOLMIRZAYEVNING HIKOYALARIDAGI LEKSIK BIRLIKLARNING LISONIY TAHLILI

Tursinboyeva Gulnoza Sobirjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti "O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi 106-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy asar tahlili, badiiy matnni idrok qilish kabilar haqida ta'kidlangan. Shukur Xolmirzayevning hikoyalari sotsiologik hamda lingvistik jihatdan yuksak tavsifga ega ekanligi haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, yozuvchining "O'zbek xarakteri" hikoyasida qo'llangan til vositalari izohlandi. Bundan tashqari, yozuvchi hikoyalardagi leksik birliklarning qo'llanilishi tahlil qilindi

**Kalit so'zlar:** Lisoniy tahlil, sotsiolingvistika, til, nutq, leksik vosita, ibora, hikoya

**Annotation:** This article focuses on the analysis of the artistic work, the perception of the artistic text, etc. It is reported that Shukur Kholmirzayev's stories have a high sociological and linguistic description. Also, the language tools used in the writer's story "Uzbek character" were explained. In addition, the use of lexical units in the writer's stories was analyzed

**Key words:** Linguistic analysis, sociolinguistics, language, discourse, lexical tool, phrase, story

**Аннотация:** Данная статья посвящена анализу художественного произведения, восприятию художественного текста и т.д. Сообщается, что рассказы Шукура Холмирзаева имеют высокую социологическую и лингвистическую характеристику. Также были разъяснены языковые средства, использованные писателем в повести «Узбекский характер». Кроме того, было проанализировано употребление лексических единиц в рассказах писателя.

**Ключевые слова:** лингвистический анализ, социолингвистика, язык, дискурс, лексический инструмент, словосочетание, рассказ.

Ma'lumki, badiiy matn ijodkorning dunyoni, voqelikni obrazli-estetik idrok qilishi mahsuli sifatida paydo bo'ladi. Badiiy asar tili ana shunday murakkab o'ziga xos hodisa. Shukur Xolmirzayev asarlari matni ham bir darajada murakkabliklarga ega. Uning asarlari badiiy jihatdan boy va turli rang-barangliklarga ega. Shukur Xolmirzayev hikoyalari lingvopoetik jihatdan boy. Hikoya hajman qisqa bo'lsa-da, unda turli birliklarni ko'rishimiz mumkin. Ushbu hikoyada dialektizmlar ko'plab uchraydi. Dialektizmlar - badiiy asarda shevaga xos birliklarni qo'llash. Yozuvchilar o'z qahramonlarini o'zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli, tasvirlar ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so'zlarni ishlatalilar. Sheva so'zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o'zida aniq aks ettirish bilan birga "badiiy nutqda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me'yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo'llanishi bilan bog'liqdir". (Badiiy matnnning lisoniy tahlili).

- Chorbog'di tashlab ketdi-ku?
- Gapti bo'lma! — O'sar endi kigizni mushtladi
- E, xudo, nima gunoyim bor edi?
- Jedim.

Bu o'rinda fonetik dialektizmlar qo'llangan. Fonetik dialektizmlar asosan, tovushlarni o'zgartirib qo'llash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovush qatlamin qavatlab qo'llash ko'rinishlarida namoyon bo'ladi

Sh.Xolmirzayev hikoyalari ham sotsiologik, ham lingvistik jihatdan yuksak tavsifga ega ekanligi tahlillar misolida o‘z tasdig‘ini topib bormoqda. Muammoning o‘rganilganlik darajasi: Sotsiolingvistika o‘tgan asrning 60-yillaridan o‘rganib kelindi. Sotsiolingvistik tadqiqotlarda ham “til sohibi” bilan bog‘liq holda tadqiq qilish ishlari amalga oshiriladi. Hozirgi kunga kelib, til birliklarining nutqiy voqelanishini sotsial tabaqa va toifalar bo‘yicha xoslanishini tadqiq etish kuchaymoqda. Ayni tilni til egasi bilan tadqiq qilish borasida qator tadqiqotlar maydonga keldi. Matnning antoposentrik tadqiqi ustida ilmiy ishlar olib borilgan va “Til egasi” tushunchasi hozirgi vaqtida tilshunoslikda asosan quyidagi ma’nolarda ishlatilmoqda:

- a) Muayyan tilde nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi, ya’ni nutq tuzish va uni idrok etish qobiliyatiga ega bo‘lgan shaxs
- b) Tildan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs, kommunikant;
- c) O‘z millatining milliy-madaniy, ma’naviy qadriyatarini aks ettiruvchi lug‘at tarkibini egallagan, uni namoyon etuvchi shaxs, muayyan til vakili.

Aynan, antroposentrik yo‘nalish bilan bog‘liq pragmalingvistika, lingvokulturalogiya, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi tilshunoslik fani yo‘nalishlari rivojlanmoqda. Hozirgi davr tilshunosligida yangi paradigmalarni jiddiy ahamiyat berilayotgan bir paytda sotsiolingvistik yondashuvda jonli nutqni tadqiq qilish, badiiy matnlarini o‘rganish shuningdek, til birliklarining sotsial xoslanishini “lison-nutq” tamoyili asosida tekshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Sotsiolingvistika tilshunoslikning boshqa yo‘nalishlaridan tadqiq predmetining o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi va muayyan bir sharoitda ma’lum bir axborotni nutq birliklari vositasida tinglovchiga yetkazish, bu jarayonda so‘zlovchi va tinglovchi sotsial belgi-xususiyatlarini tadqiq qiladi. Sotsiolingvistika asosiy e’tiborini lisoniy imkoniyatlarning ijtimoiy xoslanish (ijtimoiy mavqeyi, jinsi, yoshi) qaratsa, buni pragmatik vaziyat hamkorligini inobatga olmasdan amalga oshirish mumkin emas. Hozirgi kunga kelib sotsiolingvistlar diqqati jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlarning nutqiga qaratildi. XX asr tilshunoslik fani F.de Sossyur asos solgan sistema tilshunoslik nomi bilan bog‘liq. Bu tilshunoslik XX asrda falsafada va davrning eng ilg‘or fani fizikada o‘zaro aloqalari borligini ham, uni o‘rganish jarayonini ham ikki bosqichi: moddiy shaklda insonga bevosita kuzatishga berilgan, ya’ni ko‘rilishi, sezilishi, o‘lchanishi mumkin bo‘lgan hodisa, yakkalik, alohidilik, voqelik oqibati va bevosita kuzatishga berilgan hodisalar ostida turgan mohiyat, umumiylilik, imkoniyat sabablarini farqlash, ulardan birini kuzatish, tajriba asosida tavsiflash, ikkinchisini esa, aqliy idrok asosida ochish bilan uzviy bog‘liq.

Shukur Xolmirzayevning “O‘zbek xarakteri” hikoyasiga e’tibor qaratsak, yozuvchi kitobxonga “qadrdon”, “mehribonim”, “do’stim”, “azizim” deb murojaat qiladi: Toshkentda bu so‘zlarni eshitmaysiz-da, mehribonim. “Qadrdon, bizdayam bir momo bo‘lgich edi.”

E, do’stim, menga mana shunday kun zarda berib chiqayotganda namxush so’qmoqlardan yurish ham yoqadi-da!

E, azizim, menga – bir faqir studentga shunday tuyulgan-da!

Bundan tashqari hikoyada bolaning onasiga nisbatan “opa” deya murojaat qilishi qishloq aholisi nutqiga xos jihat: Men ham hozir paxta teraman. Opamga terishaman. Bu ham o‘zbek millatiga xos bo‘lgan jihatning ko‘rsatib berilishi. Bunga yana bir misol keltirsak, hikoya qahramonining qo’shni ayolga “opa”, qo’shni ayolning esa, hikoya qahramoniga “uka”, “og’ajon” deya yaqinlik ma’nosida murojaat qilishi ham o‘zbeklarga xos jihat. Ushbu birliklar orqali o‘zbeklarning garchi u bir birini ko‘rmagan bo’lsa ham yuz yillardan buyon tanishdek o’tirib suhbatlashishi, ko’nglida suhbatdoshiga nisbatan ko’ngli xiraligi yo’qligi, samimiyyati ko’rsatilgan. Yoki, ayolning eri haqida gapirganda “xo’jayin”, “u kishi” so’zlarini ishlatishi ham bunga misol bo’ladi.



- Keling uka, -dedi u.
- Xo'jayin molga ketgan.
- Ha, endi chidaymiz-da, og'ajon.

Yozuvchi ijodida leksik vositalar quyidagi so'zlar yordamida hosil bo'lgan. Quyida shulardan ayrimlari haqida to'xtalib o'tamiz.

1. "O'xshar" so'zi yordamida hosil bo'lgan o'xshatishlar: "-Odamzod hayoti oxirida.. so'nish oldidagi shamga o'xshar emish". "Lekin bu vaziyat vaqtinchalik esgan ko'klam shamoliga o'xshar edi" ("Og'ir tosh ko'chsa", 127)

2. Keltirilgan gaplarda berilgan o'xshar so'zi o'xshatish uchun asos bo'lib, (o'xshatuvchi vosita) odamzod hayotining so'nishi shamning so'nishiga va insonlar o'rtasidagi muhabbat alangasining naqadar ulug'ver ekanligi ko'klamda esgan shamolga o'xshatilgan.

Shunisi xarakterliki, har ikkala matnni ham obrazli tushunchalar yuzaga keltirgan, ayniqsa ikkinchi matnda obrazli tushunchalar ta'sirchan va ekspressiv tus olgan. Bundan tashqari, ushbu misolda qahramonlar xatti-harakatida yuzaga kelgan kuchli his-tuyg'ular mayjud bo'lib, o'xshatish vositasi orqali bezatilgan. Xuddi so'zi ham yozuvchi ijodida sermahsul bo'lib, o'xshatish vositalarini uyushtirishga xizmat qilgan. Odatda bu so'z o'xshatish asosi bo'lgan so'zdan oldin keladi. Quyida keltirilgan misollar orqali ushbu so'zning qo'llanilishiga doir ayrim xususiyatlarni ko'rib o'tamiz: "Qalbida quvonch gupirib, xuddi o'g'lini ko'rganidagi kabi entikdi. Buning ustiga, bu ajib manzara uning miyasida xayollar uyg'otdi" ("Og'ir tosh ko'chsa, 100") "Qumrixon opa o'midan kalovlanib turib ketdi, xuddi podshoh huzuriga kirib kelgan kanizakday qo'llarini o'rniqa qo'ydi" ("Og'ir tosh ko'chsa", 31), "Ne bir tuyg'u bilan safdan ajralgisi keldi-yu, xuddi safga ko'rinas zanjir bilan bog'langandek, uchishda davom etdi" ("Og'ir tosh ko'chsa", 83).

Ushbu so'zlarda xuddi so'zi o'xshatishni bo'rttirish uchun qo'llangan. Bu misollarda go'yo o'xshatish ikki vosita bilan ifodalangan. Ya'ni berilgan hamma gaplarda xuddi so'zi ham ishlatilgan hamda boshqa vositalar kabi, -dek, (-day) ishtirot etgan. Biroq shuni aytish kerakki, ushbu gaplarda o'xshatish vositasi kabi, -dek, -day birliklari bo'lib. Xuddi shu chegaralash va kuchaytirish-ta'kid ma'nolarini ifodalab kelgan. Buni shu gaplardagi xuddi so'zini tashlab ketish orqali ham yaqqol ko'rish mumkin. Demak yozuvchi o'xshatishni yanada bo'rttirish uchun yana ikkita vositani ketma-ket qo'llaydi. Ammo ulardan bittasi ( kabi yoki -day) o'xshatish uchun xizmat qilsa, ikkinchisi xuddi uni ta'kidlash uchun xizmat qilgan. Ya'ni fakultativ birlikka aylangan. Xuddi vositasining alohida holda o'xshatishni shakllantirishi nasrda deyarli uchramaydi. Bu narsa Shukur Xolmirzayev asarlarida ham kuzatiladi. Ammo uni o'xshatishni ta'kidlash vazifasida qo'llanilishi nasrda jumladan, Sh.Xolmirzayev ijodida ham ko'p uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, Shukur Xolmirzayevning hikoyalari idagi leksik birliklar, uning xalq qahramonlarining hayot va qadriyatlarini ifodalash uchun juda samarali va rang-barang bo'lib chiqqan. Uning so'zlar va ifodalar orqali o'ziga xos she'riy va ma'naviy rangi bor. Shukur Xolmirzayevning hikoyalari o'zida xalqning ruhiyatini, tarixiy va madaniy qadriyatlarini, jamiyatning o'ziga xos xususiyatlarni ifodalaydi. Leksik birliklarning lisoniy tahlili, Shukur Xolmirzayevning so'zlarini, iboralarini va ma'nolarni o'rganish va tushunish imkoniyatini beradi. Uning hikoyalari orqali o'zbek tilining zamonaviy yaratilishi va ifodalarini tushunishga yordam beradi. Shukur Xolmirzayevning leksik birliklari o'zbek adabiyoti va san'ati bo'yicha o'rganish uchun muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Bu tahlil orqali uning ijodiy yaratilishi va ifodalari ustida chuqurroq tushunish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli.-T.: Fan, 1987.



2. Ahmedova N. O'zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ tadqiqi: Filol.fanlari nomzodi diss. ...avtoref. -T., 2008.
- 3.Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent , 2007.
4. Холмирзаев Ш. Сайланма. 1-жилд. – Тошкент, «Шарқ», 2003.
5. Холмирзаев Ш. Сайланма. 2-жилд. – Тошкент, «Шарқ», 2005.
6. Холмирзаев Ш. Сайланма. 3-жилд. – Тошкент, «Шарқ», 2006.